



## LET'S LIVE FREE AND PROSPEROUSLY IN NEW UZBEKISTAN!

**Xaydarova Nasiba Xolmatovna**

Student of the Pedagogical Institute of Termez State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5543197>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> September 2021  
Accepted: 20<sup>th</sup> September 2021  
Online: 25<sup>th</sup> September 2021

### KEY WORDS

*Motherland, country, New Uzbekistan, President, Independence, free, prosperous.*

### ABSTRACT

*This article briefly discusses the Motherland's hymn, the Motherland's importance, and free Uzbekistan, our precious Motherland's past and present. The following are excerpts from our first and current presidents' addresses.*

## YANGI O'ZBEKISTONDA ERKIN VA FAROVON YASHAYLIK!

**Xaydarova Nasiba Xolmatovna**

Termiz Davlat Universitetining Pedagogika Instituti talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-sentabr 2021  
Ma'qullandi: 20- sentabr 2021  
Chop etildi: 25- sentabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Vatan, yurt, Yangi O'zbekiston, Prezident, Istiqlol, erkin, farovon.*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Vatan madhi, Vatan qadri hamda biz uchun muqaddas Vatanimiz bo'lmish hur O'zbekiston haqida, uning kechmishi, buguni haqida qisqacha so'z yuritilgan. Birinchi Prezidentimiz va hozirgi Prezidentimiz nutqlaridan keltirilgan.*

*"Ona bitta, Vatan yagona" Hoshimov*

Mehribon va rahmli Yaratgan Egamga behisob shukurlar bo'lsinki, bizlarga O'zbekiston deb atalgan jannatmonand yurtni vatan sayladi. Shunday hur diyorda tug'ilganimdan behad shodman.

Bugun ona Vatanim - O'zbekistonning tanti farzandi bo'lib, qalbimdagi ezgu niyat, sof tuyg'ularimni baralla aytgim keldi, kuylagim keldi!...

Vatan nima? Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan



muqaddas dargohdir. Vatan shu dargohda bo'y ko'rsatgan giyohdan tortib, uning daryo-yu soylari va tog'-u toshlariga, oddiy va kamtar, mehnatkash va fidoiy, mard va tanti odamlaridan tortib, eng mitti jonivorigacha, o'zimiz tug'ilib, unib-o'sgan maskan bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalardir. Vatanimiz tuprog'idagi oddiy has ham, oddiy tosh ham bizga muqaddas hisoblanadi.

Aziz yurtdoshim! Barchamiz uchun Vatan bitta! Bitta maqsad bizni birlashtiradi. U ham bo'lsa, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir. Betakror yurtimizga, oliyanob xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish - barchamizning eng sharafli va muqaddas burchimizdir.

Yurtimizning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "Tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, himoya qilish faqat muayyan sohalar hodimlarining vazifasi deganlar qattiq yanglishadilar. Bu yo'lda barchamiz, butun xalqimiz yanada jips bo'lib, hamjihatlikda harakat qilishimiz kerak. O'z uyingni o'zing asra degan gapda hikmat ko'p, uning ma'nosi keng. Zero, tinchlik uchun kurashish kerak, uni hechkim yaratib bermaydi!"

Bundan roppa-rosa o'ttiz yil muqaddam qutlug' bir tong otdi. Biram yoqimli, biram rohatbaxsh mustaqillik shabadasi esa boshladi. Xalqimiz hayotida tamomila yangicha yashash va yaratish fasli boshlandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: " Oradan hali ancha yillar, asrlar o'tadi. Yurtimizda yangi-yangi avlodlar dunyoga keladi. Milliy davlatchiligimizni tiklab, bizga taraqqiyot va farovonlikka erishish yo'lida mana shunday beqiyos imkoniyatlarni yaratib

bergan istiqlolimiz jonajon Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin o'chmas sahifa bo'lib qoladi".

Jonajon Vatanimiz - O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganiga roppa-rosa o'ttiz yil to'ldi. Istiqlol xalqimizga o'z taqdirini haqiqiy egasi bo'lib, qadr-qiymatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi.

Istiqlol yillarida ko'p millatli O'zbekiston xalqi o'zining salohiyati, mustahkam irodasi va matonatini namoyon etdi, og'ir sinov va mashaqqatlarni mardona yengib, katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Bugungi hur, tinch, osoyishta, mustaqil O'zbekistonimiz o'tgan yillar mobaynida og'ir sinovlardan, qiyinchilik va mashaqqatli yo'llardan o'tib, chinakam kamolga yetdi, ulg'aydi. O'z qonuniga, o'z kuchiga, o'z siyosatiga ega haqiqiy buyuk davlat bo'lib shakllandi.

Mustaqillik yillarida boy tarix va merosimiz, ko'hna urf-odatlar va an'animiz qayta tiklanganligi, bugungi kunda mehr-oqibat, hamjihatlik kabi ezgu fazilatlar, umumbashariy qadriyatlar mustahkamlanganligi quvonarli hol.

Istiqlol yillarida davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, sud-huquq tizimi va ma'naviyat, tashqi siyosat va xavfsizlikni ta'minlash borasida har tamonlama rivojlanish davri bo'ldi.

O'tgan qisqa vaqt ichida Vatanimizning jahon miqyosida o'rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda O'zbekistonga nisbatan



ishonch ruhi va hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi.

Bugun hayotimizning deyarli barcha sohalarida Istiqol ne'matlarini ko'rishimiz mumkin. Qayerga qaramang, obodlik, bunyodkorlik zavqi! Bunday tinch va to'kin hayotni ko'rib sevinasan, kishi... Qalbing g'urur-iftixorga to'ladi! Ana shunda, Istiqolning asl qadr-qimmatini bilasan, uning bebaho ne'mat ekanligini his qilasan!

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda.

Mustaqillik yillarida yurtimizda davom etayotgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot asosida tinchlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish borasida ulkan ishlar olib borildi.

O'tgan davr mobaynida jamiyat hayoti, insonlar ongi-yu shuurida shunday olamshumul o'zgarishlar ro'y berdiki, ularni so'z bilan ta'riflash mushkul...

Keyingi yillarda mamlakatimiz tom ma'noda gullab-yashnab bormoqda. Imkoniyati cheklangan insonlar, kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli tarzda turar joy binolari, yosh oilalar, harbiylar uchun alohida uylar, maktablar, san'at saroylari, sport zallari va shifo maskanlari qurilishidek benihoya katta bunyodkorlik ishlari olib borilayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi!

Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda.

- Joylarda keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari shiddat bilan olib borilmoqda.

- Qadim tariximiz yod olinib, tarixiy obidalarimiz qayta tiklanmoqda,

- hamma sohada, jumladan ta'lim, sport sohalarida keng shart-sharoitlar yaratilganligi sabab yuksak marralarga erishilmoqda,

- tibbiyot ham yanada rivojlanmoqda,

- bunday yutuqlarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Eng asosiysi, inson qadri ulug'lanmoqda!

Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida hammamiz bahamjihat bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib, qo'lni qo'lga bersak, Xudo xohlasa, bundan keyin ham yanada yuksak marralarga yetamiz!

Zero, hozirgi tezkor va shiddatli zamonda to'xtab qolishga, sekinlashishga sirayam haqqimiz yo'q!

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'z nutqida aytganlaridek: "Ta'kidlash kerakki, Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqazo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir.

Yangi O'zbekiston - demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Bugun biz yagona xalq, yagona millat bo'lib, ko'zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil



bormoqdamiz. Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo'lmish yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. O'zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.

Ishonchim komil, biz jonajon Vatanimizga bo'lgan cheksiz mehrimiz va sadoqatimizni muqaddas bayroq qilib, bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo'lib, ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib o'bro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi."

So'nggi so'z o'rnida, hur O'zbekistonimizni Istiqlolga yetkazgan Birinchi Prezidentimizga hamda ona yurtimizni shu darajaga ko'targan, Vatan qadrini anglatgan, inson qadrini ulug'lagan Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichga cheksiz minnatdorchiligimni bildiraman hamda tashakkur isxori o'rnida o'z ijod mahsulimni havola etaman:

Oson tutmang, Yurtboshimga, siz!

Undadir bari, elning g'ami, tashvishi.

Bugunga osonlikcha yetmadik, axir

Qancha zaxmat chekdik, qancha tazarru.

Siz to'rt-besh farzand g'amin yeb,

Tinim bilmay mehnat qilasiz.

Shularning ertasin, kelajagin deb

Kecha-kunduz o'yda, harakatdasiz.

U-chi, o'ttiz besh million fuqaroni deb

Na bor kunduz halovat, na tunda uyqu.

Shu xalqning, shu elning ertasini deb

Harakatda doim, baraka topgur!

Allohga shukur-ki, elimiz tinchdir

Ustimiz but, qornimiz to'qdir.

Bizni degan, bizni o'ylagan

Yurtboshimizning tenggi yo'qdir!

Oson tutmang, Yurtboshimga, siz..!

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Sh. Mirziyoyev. Toshkent "O'zbekiston" 2017.
2. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016.
3. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2017. Sh.Mirziyoyev.
4. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent-"O'zbekiston"-1996-yil. I.A.Karimov.
5. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent - "O'zbekiston" - 2015. I.Karimov.